

## SABZAVOTCHILIKKA IXTISOSLASHGAN XO‘JALIKLARDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Shoxruxbek Abdullaev*

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

**Annotatsiya.** Sabzavotchilik dehqonchilikning boshqa tarmoqlaridan ko‘p jihatdan farq qiladi, jumladan, sabzavotchilikda ekinlar ochiq va himoyalangan (yopiq) yerlarda yetishtiriladi, aksariyat bir mavsumda hosil beradigan ekinlar ekiladi. Dala va himoyalangan yerdagi sabzavotlarga bo‘linadi. Himoyalangan yerlarda o‘simplikning o‘sishi va rivojlanishi uchun (issiqxonalarda) jami omillar sun’iy yaratiladi va uni boshqarish mumkin. Bu esa qish, erta bahor, kech kuzda ham sabzavot yetishtiriш imkoniyatini yaratadi. Rentabellik o‘z xususiyatiga ko‘ra sabzavotchilikning iqtisodiy samaradorligi to‘g‘risida yakuniy, umumiy xulosa chiqarish asosida tarmoq salohiyatini baholash imkonini beradi. Bu esa rentabellik darajasini foyda bilan bir qatorda mahsulot tannarxiga ham bog‘liq ekanligini asoslaydi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida takror ishlab chiqarishni ta’minlay oladigan optimal rentabellik darajasi 45-50%ni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

**Kalit so‘zlar:** sabzavotchilik, iqtisodiy samaradorlik, tannarx, foyda, rentabellik, dala sabzavotchiligi, himoyalangan yerda sabzavotchilik

Agrar sohada olib borilayotgan islohotlar tarmoqda xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish yo‘li bilan qishloq xo‘jaligi ekinlari tarkibini maqbullashtirish asosida ularning hosildorligini oshirish, qayta ishslash natijasida olinayotgan birlamchi mahsulot sifatini keskin oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish orqali mehnat unumdorligini va demak iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Islohotlar davomida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning xalqaro andozalar va xalqimiz mentalitetiga mos keladigan fermer va dehqon xo‘jaliklaridan iborat modeli tanlandi.

Qishloq xo‘jaligini bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari darajasida rivojlantirish uchun tarmoqda erkin faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan turli xildagi mulk va mulkchilik shakllarining, ularga asoslangan tadbirkorlik turlari va ular o‘rtasidagi erkin bozor munosabatlарining nazariy, uslubiy asoslarini teranlashtirish, takomillashtirish, investitsiyalarni ko‘proq jalb etib, fan-texnika yutuqlarini, yangi texnikalarni, ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, cheklangan yer va suv resurslaridan, doimiy va o‘zgaruvchi kapitaldan hamda mehnat resurslaridan qisqa va uzoq muddatlarda to‘liq va samarali foydalanish yo‘llarini aniq belgilash, barcha xarajatlarni tejash, mehnat unumdorligini yuksaltirish, ishchi-xizmatchilarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish negizida foyda summasini ko‘paytirish yo‘llarini asoslangan holda belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Bu masalalarning ilmiy hamda amaliy asoslarini yaratishda, rivojlantirishda, ularni ishlab chiqarishga joriy etishda qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos, xalqimizning milliy xususiyatlarini e’tiborga olish zarur.

Iste’mol bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxi barqarorligini ta’minalashning yagona yo‘li – meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari

yetishtirish hajmini ko‘paytirish hamda daladan do‘kongacha bo‘lgan uzluksiz zanjirni yaratishdir.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, sohada yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida 2019 yil 23 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmonini qabul qilinishi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2030 yilgacha bo‘lgan yo‘l haritasini belgilab berdi. “Agrosanoat majmuidagi davlat organlarining funksiyalari asosan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishga yo‘naltirilgan va ularning ayrimlari xususiy sektorga o‘tkazilishi mumkin. Mevasabzavotchilik va chorvachilik sohalarida sezilarli o‘sish kuzatilishiga qaramasdan, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi, moddiy resurslar ta’minati hamda ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalarining aksariyat qismi paxta xom-ashyosi va boshoqli don yetishtirishga mo‘ljallangan. Xalqaro standart va talablarga javob beradigan zamonaviy va sifatli xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining yetishmasligi sohadagi muammolarni yanada murakkablashtirmoqda. Bu birinchi navbatda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, veterinariya va fitosanitariya bilan bog‘liq davlat xizmatlariga taalluqlidir”.

O‘zbekistonda bozor munosabatlarini keng joriy etish hamda qishloq xo‘jaligida moliyalashtirish va o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini tubdan takomillashtirish, shu asosda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va ularga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy xolatini yaxshilash, rentabelligini oshirish, yetishtirilayotgan mahsulot hajmlari barqaror o‘sishini ta’minalash, ko‘p tarmoqli ishlab chiqarishni rivojlantirishga jiddiy e’tibor berilishi aylanma mablag‘larni boshqarishni takomillashtirish masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirdi. Bu muammoning dolzarbliyi birinchi navbatda, fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni rivojlantirish davlat buyurtmasiga binoan emas, balki bozor talabiga asoslangan bo‘lishi kerakligi bilan bog‘liq. Chunki, O‘zbekiston xukumatining asosiy talabi – fermer xo‘jaliklari yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish orqali o‘zlariga qo‘sishma mablag‘ ishlab topish yoxud daromad olish imkoniyatini yaratishlari kerak. Olingan daromad esa fermer xo‘jaliklarini moliyaviy jixatdan barqarorligini ta’minalashga xizmat qilmog‘i zarur.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning hozirgi bosqichida tarkibiy o‘zgarishlar o‘zining sezilarli natijalarini berib, 2022 yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 83,1% qismi nodavlat sektoriga to‘g‘ri kelmoqda. Shunga mos holda iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 81,2% qismi nodavlat sektorida mehnat qilmoqdalar. Fermer xo‘jaliklarida bevosita 2,4 mln kishidan ziyod mehnat resurslari ishlamoqdalar ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)).

Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta’minalashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo‘nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarning ishlab chiqilishi va aniq belgilab

olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda, bosib o‘tilgan yo‘l – oldingi davrdagi erishilgan yutuq va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish ham muhim printsipli ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tishi ta’minlanayotgan yillarda mamlakat aholisining o‘rtacha soni bir yilda 310-320 ming nafarga yoki 1,3 foizga o‘smoqda. Shu bilan birga sanoat korxonalari soni va ishlab chiqarish quvvatlari hamda xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi sub’ektlari ham yil sayin oshib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘ sifatida sabzavotchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi umumiqtisodiy muammo sifatida ilmiy izlanuvchilar va amaliyotchilar tomonidan o‘rganib kelingan. Biroq, mazkur izlanishlarning aksariyati iqtisodiyot sub’ektlarining huquqiy-iqtisodiy mustaqilligi ta’minlanmagan sharoitda olib borilgan bo‘lib, bu boradagi ilmiy va amaliy takliflarni real xo‘jalik yuritish sharoitiga materiallashuvi uchun yetarli shart-sharoit bo‘lmagan yoki ular mavjud siyosiy tizim harakteriga to‘g‘ri kelmas edi. Endilikda esa mavjud ilmiy adabiyotlardagi turli qarashlar va kontseptsiyalarni o‘rganish asosida bozor iqtisodiyoti sharoitida ro‘yobga chiqishi mumkin bo‘lgan yangi izlanishlarni, qarashlar va mulohazalarni ilgari surish zaruriyatga aylandi.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalari kabi sabzavotchilikda ham ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko‘lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo – ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Fermer xo‘jaliklarida yuqoridagi kabi muammolarni hal qilishda asosiy yo‘llardan biri yangi innovatsion agrotexnologiyalarni qo‘llash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishdir.

Respublikada yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning 23,8 foizga yaqini, oziq-ovqat mahsulotlarining 85 foizdan ko‘prog‘i qishloq xo‘jaligida yaratilmoqda. Davlat miqyosidagi jami valyuta tushumining salmoqli qismi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qilish hisobiga olinmoqda. Kelajakda fan-texnika taraqqiyotiga, ilg‘or texnologiyalarga asoslangan qayta ishslash sanoatining yuksalishi, aholi sonining o‘sishi, tashqi bozor talabining o‘zgarishi ekologik talablarga javob beradigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayonlari yanada rivojlantirilishini ob’ektiv ravishda taqozo etmoqda. SHuning uchun ham tarmokni rivojlantirish va samaradorligini yuksaltirish aloxida ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o‘ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xom ashyo va eksportbop mahsulot bo‘lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko‘paytirish imkonini berdi.

Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlashga zamin yaratib, yuqori sifatli meva-sabzavotlarni chet mamlakatlarga eksport qilishga ham imkon bermoqda. Xususan, g‘alla yetishtirish 2000 yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka

– 3,1 marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2 marta, go’sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi. Natijada aholi jon boshiga sabzavot ishlab chiqarish 283,2 kg, kartoshqa 76 kg, poliz 50,8 kg, meva 76,9 kg va uzum 43,2 kg. ga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa tibbiy talab me’yoriga nisbatan 1,5–2,5 barobar ko‘pdir.

Fermer xo‘jaliklarini boshqarish jarayonida sabzavot yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini chuqur o‘rganish talab etilmoqda. Chunki mahsulot yetishtirish uchun zarur bo‘lgan yoqilg‘i, mineral o‘g‘itlar, o‘simliklarni himoyalash va texnik servis xizmatlari kabi moddiy-texnika resurslarining baholari erkin narxlar tufayli yuqori darajada o‘sib ketmoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligida sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchilarga noqulay bo‘lgan nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda. Sabzavotlar tannarxini kamaytirish va samaradorlikni optimal darajagacha oshirish, yalpi hosil miqdorini yanada ko‘paytirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti davrida aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning bir qancha tarmoqlarini esa xom ashyoga bo‘lgan talabini qondirish hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi oldida turgan eng muhim dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda va respublikamiz hukumati bu sohaga katta e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik soxasini isloh qilish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni va qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligining buyruq va qarorlari bu sohalar shirkatlarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish, agrosanoat firmalarini tashkil qilish va meva-sabzavotchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirishda muhim o‘rin tutdi.

O‘zbekiston meva-sabzavotlar yetishtirish uchun qulay tabiiy sharoitga ega. Bu yerda agrotexnika qoidalariga muvofiq juda yuqori xosil olish mumkin. Respublikada sabzavot yetishtirish va eksport qilish muttasil o‘sib bormoqda.

Xo‘jaliklarni ixtisoslash yo‘li bilan yirik shaharlar va sanoat markazlari atrofida sabzavotchilik xo‘jaliklarini tashkil qilish o‘zini to‘la oqladi hamda mo‘l-ko‘l hosil yetishtirish imkonini berdi. Bunday xo‘jaliklarda hosildorlik yuqori hamda mahsulot tannarxi arzon bo‘lishiga erishilmoqda. Ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarda sabzavot yetishtirishni kontsentratsiyalash mazkur maxsulotlarni tayyorlash sistemasini takomillashtirishning zarur sharti hisoblanadi.

Sabzavotchilik dehqonchilikning boshqa tarmoqlaridan ko‘p jihatdan farq qiladi, jumladan, sabzavotchilikda ekinlar ochiq va himoyalangan (yopiq) yerdarda yetishtiriladi, aksariyat bir mavsumda hosil beradigan ekinlar ekiladi. Dala va himoyalangan yerdagi sabzavotlarga bo‘linadi. Sabzavot ekinlari ochiq maydonlarda (bahor, yoz va kuz davrlarida) sabzavot hamda urug‘, yopiq yerdarda (mavsumdan qat’i nazar) sabzavot olish uchun yetishtiriladi. Himoyalangan yerdarda o‘simlikning o‘sishi va rivojlanishi uchun (issiqxonalarda) jami omillar sun’iy yaratiladi va uni boshqarish mumkin. Bu esa qish, erta bahor, kech kuzda ham sabzavot yetishtiriш imkoniyatini yaratadi. Sabzavotchilikda yetishtiriladigan ekinlar turining ko‘pligi, biologik xususiyatlarining xilma-xilligi bilan ham ajralib turadi. O‘zbekistonda 70 ga yaqin turdagи sabzavotchilik ekinlari yetishtiriladi va qishloq xo‘jaligida salmoqli o‘rinni egallaydi.

O‘zbekistonda aholi jon boshiga yillik sabzavotlar iste’molining fiziologik

normalarini (jami 113,3 kg; shundan karam 2,1, pomidor 25,6, bodring 5,5, piyoz va sarimsoq 18,3, sabzi 18,3, lavlagi 5,5, boshqa sabzavotlar 20,0 kg) ta'minlash maqsadida sabzavotchilik jadal rivojlantirilmoqda. Yirik shaharlar va sanoat markazlari atroflaridagi tumanlar, asosan, sabzavotchilik bilan shug'ullanadi. Dehqon va fermer xo'jaliklarda ochiq dalada polietilen plynokalar ostida ertagi sabzavotlarni yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Respublikaning janubiy viloyatlarida ertagi sabzavotlar yetishtirish rivojlanib bormoqda. Sabzavotchilikda chet el navlari va tajribalari keng qo'llanilmoqda. 2022 yilda O'zbekistonda sabzavot ekinlari maydonlari 180,4 ming ga, yalpi hosili 3637,3 ming t, hosiddorligi 173,1 ts/ga bo'ldi.

Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan har qanday turdag'i mahsulot, jumladan sabzavotlar o'z-o'zidan yetishtirish uchun ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish zarur. Ishlab chiqarishni tashkil etish uchun dastavval ishlab chiqarish resurslariga ega bo'lish, ular orasidagi mutanosiblik holatlarini aniqlash va ishlab chiqarishdagi mahsulot harakteriga qarab jonli va buyumlashgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Har bir ishlab chiqarilgan mahsulot sarfini shu mahsulotni sotishdan kelgan daromad bilan solishtirish natijasida iqtisodiy samaradorlik aniqlanadi.

Iqtisodiy samaradorlik – bu bir so'mlik sarf evaziga qancha so'mlik mahsulot ishlab chiqarilganini o'zida ifoda etadi. Demak ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan kelgan foydani uni yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlarga nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich asosida har bir mahsulot birligi uchun qancha xarajat qilingani aniqlanadi. Bu xarajatlarning oshishi tovar qiymatining oshishiga olib keladi.

Shu asosda sabzavotchilikda iqtisodiy samaradorligini aniqlashda bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Sabzavotchilikda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini nazariy jihatdan talqin etishda aniq chegaralar yo'q. SHuning uchun ushbu ko'rsatkichlar nisbatini aniqlash masalasi ochiqligicha qolmoqda. Bu masalaga anqlik kiritish, yechimlari ichidan eng maqbulini tanlash sabzavotchilik iqtisodiy samaradorligini o'rganish va baholashning boshlang'ich nuqtasi sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrgacha iqtisodiy samaradorlikni baholashning uslubiyoti haqida tadqiqot olib borgan olimlarning bu sohadagi fikr va mulohazalaridan kelib chiqib, ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi olimlar iqtisodiy samaradorlikni mezon ko'rsatkichi yagona bo'lishi lozim deb hisoblaydilar. Ularning fikri bo'yicha ushbu ko'rsatkich umumiyligi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib o'zida iqtisodiy samardorlikni ob'ektiv va to'la to'kis aks ettirishi lozim.

Rentabellik fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorlik darajasini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanib, o'zida sarflangan bir so'mlik xarajat hisobiga olingan foydani ifodalaydi. Rentabellik o'z xususiyatiga ko'ra tarmoqning iqtisodiy samaradorligi to'g'risida yakuniy, umumiy xulosa chiqarish asosida tarmoq salohiyatini baholash imkonini beradi. Bu esa rentabellik darajasini foyda bilan bir qatorda mahsulot tannarxiga ham bog'liq ekanligini asoslaydi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida takror ishlab chiqarishni ta'minlay oladigan optimal rentabellik darajasi 45-50% ni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, fermer xo'jaligining o'rtacha 1 hektar ekin maydoniga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish xarajatlari, yalpi mahsulot va daromad ham samaradorlikni aniqlashga asos bo'lishi mumkin.

Mahsulot tannarxi esa uni ishlab chiqarish uchun ketgan pul material xarajatlari va ish haqidan iboratdir. Xarajatni kamaytirish hisobiga rentabellikni ko‘tarish maqsadida tannarx tarkibidagi ish xaqini kamaytirish hollari bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida moddiy manfaatdorlik tizimining buzilishiga olib keladi. SHu jihatdan tannarx tarkibidagi bu ikki nisbat optimalligini ta’minlash bozor iqtisodiyotining asosiy talabidir.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan ko‘rsatkichlarga moddiy manfaatdorlik nuqtai nazaridan baho bersak, ularning har biri o‘zida iqtisodiy samaradorlikni ba’zi bir jihatlarini aks ettirishi bilan bir qatorda mavsum yakunidagi moddiy manfaatdorlikni nazarda tutadi. Ammo, hodimlarning mavsum davomidagi extiyojlarini qondirish ham muhim zaruriyat hisoblanadi. Bu zaruriyatni esa natural va qiymat ko‘rinishidagi daromadlar hal etadi. Sabzavotchilikda mahsulot yetishtiruvchilarni ish haqi bilan ta’minlash darajasini o‘zida to‘laroq aks ettiruvchi ko‘rsatkich bu bir ishlovchi hisobiga pul daromadlarining miqdori hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich olingen sof foydani hodimlar soniga nisbatini mavsum oylari bo‘yicha qayta hisobi bilan asoslanadi. Bu ko‘rsatkichni hisobga olish birinchidan, mehnat resurslarinnig kundalik ehtiyojlarini qondirish holatini aniqlash va shu asosda uni yaxshilash chora tadbirlarini belgilash imkonini bersa, ikkinchidan, ishchilarni mulkka va mehnatga bo‘lgan munosabatining yaxshilanishiga, uchinchidan esa sabzavot yetishtiruvchilarni ijtimoiy ahvoli va turmush darajasini yaxshilash uchun zamin yaratiladi.

### Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmoni. Toshkent, 2019-yil 23-oktyabr
2. Nosirov B., Rakhmonova B. Organization of production of walnuts in an industrial volumes. International online conference ECLSS Economics and Social sciences. Proceeding book. June 28-29, 2020. Istanbul, Turkey. P. 59-67. <http://eclss.org/publicationsfordoi/istanbulonline.pdf>
3. M.N. Yusupova, B.Z. Nosirov. Pests of cotton and straw control at collection. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Volume: 6. Issue: 12. December 2020. P. 57-61. DOI: 10.36713/epra2013
4. B.Nosirov, Sh.Tulakov. Opportunities to increase land efficiency in farming. Innovative Technologica: Methodical Research Journal (IT). ISSN: 2776-0987. Volume 2, Issue 5, May, 2021. 175-179. <https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/84>
5. B.Nosirov, Sh.Abdullaev, H.Yuldasheva. Relevance of development of multiple-profile farms. International journal for innovative Engineering and Management Research (IJIEMR). 2021. Volume 10, Issue 03, Pages: 516-521. ISSN 2456-5083. <https://ijiemr.org/public/uploads/paper/638741617019191.pdf>
6. Nosirov B. Z., Ergashev A. A., Islamova D. T. Development prospects of food markets in Andijan province // THEORIA: педагогика, экономика, право. 2020. №1 (1). URL: <https://theoria.apni.ru/article/17-development-prospects-of-food-markets>
7. B.Z.Nosirov, Peculiarities of formation and development of the regional food

- market (on example of Andijan region. Abstract of the diss. for PhD. T.: SISM, 2004.
- 8. B.Nosirov. Some problems of development of livestock industry. Science and education in agriculture. Volume 1, Issue 2. 2022. <https://www.seagc.andqxai.uz>
  - 9. B.Nosirov. Features of development of livestock industry in the field of food security. Sustainable agriculture. 3(15).2022. p.17-20. <http://sa.tiiame.uz/en/page/arxiv>
  - 10. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rahmonova. Properties and potential of walnut growing in Uzbekistan. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, Volume 6, Issue 5, Page No. 140-146. ISSN : 2581-4230, <https://journalnx.com/papers/20150963-potential-of-walnut.pdf>
  - 11. B.Nosirov. Basis for the development of the regional food market. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume 1(11), 2021. p.65-71.
  - 12. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rakhmonova. Organization of walnut production based on the industrial method in Uzbekistan. Sustainable agriculture. 2(6).2020. p.24-26. <http://sa.tiiame.uz/en/page/arxiv>
  - 13. *B.Nosirov, M.Mirzakarimov.* Features of development of milk production in Uzbekistan.The scientific heritage. No 91 (2022) p.32-35. ISSN 9215-0365. <https://zenodo.org/record/6695687#.Yri0UXZBzIU> DOI: 10.5281/zenodo.6695687 .
  - 14. *B.Nosirov, M.Qobulova, D.Islamova.* Opportunities of improving economic indicators in fruit production.Interdiscipline innovation and scientific research conference: a collection of scientific works of the International scientific online conference (15th December, 2022) – Great Britain, London : "CESS", 2022. Part 4. P. 45-48. <https://interonconf.net/>
  - 15. *B.Nosirov.* Some problems of development of livestock industry. .Science and education in agriculture. 2022. Volume 1, Issue 2. P.18-25. <https://www.seagc.andqxai.uz>
  - 16. *B.Nosirov, A.Raximov.* Development of wholesale food markets.American Journal of Science and Learning for Development. Volume 2, No 1. Jan-2023. P. 47-50. ISSN: 2835-2157. <http://inter-publishing.com/index.php/AJSLD/article/view/898>
  - 17. *B.Nosirov, D.Fakhreddinova .* Reducing the cost of products in agroclusters in the digital economy. Journal of New Century Innovations. Volume 23, No 2. February-2023. P. 19-24. <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3748/3539>
  - 18. *B.Nosirov, A.Abdurashidov.* Development of elements of food markets.Web of scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979. Volume 4, Issue 3, 2023. P. 881-886. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3544/3398>